

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining
Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) Suv havzalarini nazorat qilish
boshqarmasi, Amudaryo suv havzasini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi
(davlat katta ekologiya inspektori) lavozimiga qo‘yiladigan
MALAKA TALABLARI**

Bosh mutaxassis		
Ma’lumot	Nomzod suv xo‘jaligi, gidrologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki turdosh mutaxassisliklardan biri bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim.	
Mutaxassislik		
Mehnat staji	Nomzodning umumiy mehnat staji kamida (1) bir yilni tashkil etishi vs suv resurslarini muhofaza qilish yoki ekologik nazorat sohasida ish stajiga ega bo'lishi lozim.	
Davlat tilini bilishi	Nomzod davlat tilini mukammal darajada bilishi, xizmat faoliyatini davlat tilida yuritish, rasmiy hujjatlar bilan ishlash hamda ish yuritish qoidalariga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi shart.	
Xorijiy tilni bilish darajasi	Nomzod xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro darajada tan olingan sertifikatlariga ega bo'lishi afzal hisoblanadi.	
Kompyuter savodxonligi	Kompyuter savodxonligi bo'yicha nomzod zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan suv resurslari monitoringi va GIS tizimlaridan samarali foydalana olishi, MS Office dasturlar paketi, ayniqsa Excel dasturi bilan mukammal ishlay olishi hamda Internet tarmog'idan xizmat vazifalarini bajarishda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	
Qo‘shimcha talablar	Amudaryo suv havzasi hududida suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashga qodir bo'lishi; suv havzasi ekotizimlari holatini, ifloslanish manbalarini aniqlash bo'yicha monitoring va tekshiruvlar o'tkaza olishi; oqova suvlar, chiqindilar va zararli moddalarning suv havzasiga ruxsatsiz oqizilishi holatlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini bilishi; ma'muriy choralar, jarimalar va ta'sir choralarini qo'llash tartibini bilishi; tekshiruvlarni qonuniy asosda o'tkaza olishi; suv havzasi ekologik holati bo'yicha umumlashtirilgan hisobotlar va tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlay olishi; hududiy ekopolitsiya bo'linmalari bilan suv havzasini muhofaza qilish yuzasidan hamkorlikda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi;	

	xizmat ma'lumotlari va maxfiy axborotlar bilan ishlashda qonunchilik talablari va ichki tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilishi talab etiladi	
--	---	--

Mazkur lavozim belgilangan tartibda 5 (besh kun muddatda) **Ichki tanlovga chiqariladi (30.07-03.08.2026).**

Mazkur vakant lavozimga quyida keltirilgan elektron pochta orqali hujjat topshirishlaringiz mumkun.

Murojaat uchun 71 207 07 70 (3030)